

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 12/1

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/1 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

| | |
|---|-------|
| <i>Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР) | 12-18 |
| <i>Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li</i> QORAQALPOG'ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA "DOBROLET" AKSIYADORLIK JAMIYATINING O'RNI | 19-23 |
| <i>Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna</i> QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG'LIQ BA'ZI MAROSIMLAR | 24-29 |
| <i>Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли</i> МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ | 30-35 |
| <i>Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich</i> ТО'ДА-1 NEOLIT MAKONINING O'ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXELOGIYASINI O'RGANISHDAGI O'RNI | 36-40 |
| <i>Olimjonova Gulida Olimjon qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI .. | 41-47 |
| <i>O'ng'alov Lazizbek Amiriddin o'g'li</i> NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXELOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI.. | 48-53 |
| <i>Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich</i> MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA) | 54-58 |
| <i>Tilavboyev Muhammad</i> JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR | 59-63 |
| <i>To'xtaboyev Xurmatullo Shomirza o'g'li</i> O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA) | 64-68 |
| <i>Рахматиллаев Хасанбой</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР | 69-74 |
| <i>Qurbonova Manzila Boqiyevna</i> BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKLARI VA ICHIMLIKLARI | 75-80 |
| <i>Ravshanova Gulora</i> QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA'MINOTI (XX-asrning 20- yillarida) | 81-85 |
| <i>Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич</i> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ | 86-90 |

| | |
|---|---------|
| <i>Baxronov Abdullo Haydar o'gli</i> O'ZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXELOGIYASINI O'RGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING O'RNI | 91-95 |
| <i>Maxmatqulov Jasur Isroil o'g'li</i> GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI | 96-101 |
| <i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON-TURKIYA HAMKORLIGI VA UNING NATIJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA) | 102-106 |
| <i>Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли</i> АФРОСИЁБДАГИ СЎҒД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50-80-ЙИЛЛАРИ)..... | 107-111 |
| <i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҒИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ | 112-117 |
| <i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI | 118-124 |
| <i>To'xtamishева Fotima Musurmonovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADO'ZLIGIDA O'ZGARISHLAR..... | 125-132 |
| <i>Sattorov Nurbek</i> SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING O'ZBEK XALQI ETNOGENEZI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI | 133-138 |
| <i>Hazratov Nurali Burxon ug'li</i> QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXELOGIK YODGORLIKLARINING O'RGANILISH TARIXIDAN | 139-144 |
| <i>Mamatqulov Bekzod Sherzovich</i> O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)..... | 145-149 |
| <i>Berdiyev Jamshid</i> VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI | 150-155 |
| <i>Djurakulov Sherzod Davronovich</i> SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXELOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI | 156-161 |
| <i>Қурбанова Дилрабо Шерипбоевна</i> ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ | 162-172 |

| | |
|--|---------|
| <i>Зухриддин Болтаевич Жунаев</i> ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924 йиллар) | 173-181 |
| <i>Mamadiev Voxodir Bobojonovich</i> QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON | 182-186 |
| <i>Norqo'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich</i> AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILINING QONUNY ASOSLANISHI, O'ZBEKLAR IJTIMOYIY-MADANIY HAYOTIDAGI O'RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI) | 187-197 |
| <i>Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич</i> ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СЎНГГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: ДАФН УДУМИ ВА МИГРАЦИЯ МАСАЛАЛАРИ | 198-203 |
| <i>Азаматова Гулмира Байирбековна</i> ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЎЗИ МУЛОҲАЗАЛАР | 204-208 |
| <i>Tishabayeva Iroдахon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI | 209-215 |
| 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ | |
| <i>Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li</i> DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI | 216-226 |
| <i>Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</i> O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILYIY- IQTISODIY MEKANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI | 227-232 |
| <i>Отабеков Отажон Файрат ўғли</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАСАЛАЛАРИ | 233-243 |
| <i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ | 244-255 |
| <i>Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич</i> ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ | 256-263 |
| <i>Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi</i> TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI | 264-269 |
| <i>Matniyozov Murodjon Rajabbayevich</i> DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA QONIQLASHINING AHAMIYATI | 270-278 |

| | |
|--|---------|
| <i>Хамидова Зарифа Урол қизи</i> ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ | 279-291 |
| <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i> KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MONIYATI | 292-296 |
| <i>Худойназаров Фахритдин Хаитович</i> ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ | 297-304 |
| <i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i> GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI ANAMIYATI | 305-313 |
| <i>Кадырова Шарофат Амоновна</i> ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ | 314-323 |
| <i>Бегматова Зиёда Захиджановна</i> ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ | 324-332 |
| <i>Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich</i> TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF VITICULTURE PRODUCTS | 333-340 |
| <i>Masharipova Fazilat Axmedovna</i> OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ANAMIYATI | 341-348 |
| <i>Мусинов Дилшод Султанович</i> ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГИ ИЖТИМОИЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА | 349-359 |
| <i>Шакирова Юлдуз Сайдалиевна</i> ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ | 360-368 |
| <i>Абдивоҳидов Мамуржон Авазхон ўғли</i> РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ МАЗМУНИ, ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ | 369-380 |
| <i>To'xtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</i> DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA | 381-388 |
| <i>Қурбанова Раҳима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна</i> РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ | 389-403 |
| <i>Набиева Нилуфар Муратовна</i> ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ | 404-416 |

| | |
|--|---------|
| <i>Safarov Radjabboy Eshmuxammadovich</i> KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEKANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI | 417-428 |
| <i>Sharipova Zulayho</i> SANOAT TARMOQLARI KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI | 429-434 |
| <i>Шарипов Акбар Илхамович</i> ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛИ МАРКЕТИНГНИ РОЛИ | 435-440 |
| <i>Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич</i> ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ | 441-447 |
| <i>Хамзайева Дилфуза Самаровна</i> SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI | 448-452 |
| <i>Усманова Насиба Акбаржоновна</i> ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ | 453-459 |
| <i>Исхакова Сарвар Аюбовна</i> ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ | 460-467 |
| <i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich</i> INNOVATSION TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI | 468-479 |
| <i>To'uchiyeva Nodira G'ulom qizi</i> OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN'IY INTELLEKT | 480-485 |
| <i>Абдурахимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ | 486-494 |
| <i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI | 495-500 |
| <i>Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyarovna</i> ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES | 501-506 |
| <i>Radjabova Malika Ziyodullayevna</i> AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA | 507-512 |

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

| | |
|---|---------|
| <i>Asraqulova Adiba Nabiyevna</i> ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR | 513-520 |
| <i>Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич</i> ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ҲОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ | 521-530 |
| <i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНаВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ҲОЯЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ | 531-538 |
| <i>Abduxolikova Nasiba Alijonovna</i> YOSHLARNING ONLAYN TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI IJOBiy SALBIY OMILLAR | 539-544 |
| <i>Yazdonov Zikirillo Shukurilloevich</i> QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O'RNI | 545-552 |
| <i>Sharipova Barno Salimovna</i> BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY IMIJI | 553-558 |
| <i>Xalikulova Umida Rustamovna</i> AXBOROT MUHITINING OLIY TA'LIMGA TA'SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR | 559-564 |
| <i>Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida</i> OILA VA NIKOH MA'NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI | 565-571 |
| <i>Tog'ayev Nodirjon Ergashevich</i> AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT QURISH HAMDA YOSHLAR TARBIVASIDA TUTGAN O'RNI | 572-576 |
| <i>Kipchoqov Xomidjon Gulomovich</i> JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY MASALASI SIFATIDA | 577-581 |
| <i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i> ZAMONAVIY OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI | 582-586 |
| <i>Агзамова Нилюфар Шухратовна</i> “АДАБ АЛЬ-ТАБИБ” КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ | 587-591 |
| <i>Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich</i> INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA | 592-596 |
| <i>Nabiyev Mansur Jamxur o'g'li</i> DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOiy G'OYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSIYASI | 597-603 |

| | |
|---|---------|
| <i>Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI | 604-609 |
| <i>Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi</i> O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI | 610-615 |
| <i>Tagayev Ganisher Xasanovich</i> YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY-ESTETIK OMILLARNING O'RNI | 616-625 |
| <i>Шоназаров Жамшид Шуҳратович</i> БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ҲОЯСИ | 626-630 |
| <i>Ҳамраев Сирож Абруевич</i> ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАЪНАВИЯТИ | 631-637 |
| <i>Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich</i> MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI: O'ZBEKISTON VA XORIY TAJRIBASI | 638-642 |
| <i>Hashimova Gulsina Ismoyilovna</i> HARBIY IJTIMOYIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI | 643-648 |
| <i>Karimova Gulnoza Yigitaliyevna</i> AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY ZARURIYATI | 649-655 |
| <i>Sharipova Kamola Usmonjonovna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI | 656-661 |

07.00.00 – Тарих фанлари

Tilavboyev Muhammad

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy
ta'lim kafedrasasi o'qituvchisi

JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Jizzax vohasida ot bilan bog'liq urf-odatlar va marosimlar haqida fikr va mulohazalar yuritiladi

Kalit so'zlar: Jizzax vohasi, geografik joylashuv, urf-odatlar, diniy qarashlar, chorvachilik, ot bilan bog'liq marosimlar, ibtidoiy qarashlar, voha aholisi.

Tilavboyev Muhammad

Jizzakh State Pedagogical University
Instructor of the Distance Learning Department in
Social and Humanitarian Sciences.

TRADITIONS AND CUSTOMS RELATED TO BREAD IN THE JIZZAKH REGION

Abstract. This article explores ideas and observations about traditions and customs related to bread in the Jizzakh region. Historically, various ancient religions and religious beliefs prevailed in this area until the advent of Islam in Central Asia. Understanding the essence of historical conditions and natural events of our ancestors led to the emergence and development of many religious beliefs, contributing to the emergence and spread of ancient religious views and beliefs such as totemism, animism (magic), superstitions related to spirits and zoroastrianism[1]. As a result, ancient religious concepts and mythological beliefs were glorified with characteristics such as animal worship, life-giving deity, and ancestral head.

Keywords: Jizzakh region, geographical location, traditions and customs, religious beliefs, paganism, rituals related to bread, primitive beliefs, population of the region.

Тилавбаев Мухаммад

Джизакский государственный педагогический университет
Преподаватель кафедры дистанционного образования
по социально-гуманитарным наукам

ТРАДИЦИИ И РИТУАЛЫ, СВЯЗАННЫЕ С ЛОШАДЬМИ В ДЖИЗАКСКОМ ОАЗИСЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются мысли и наблюдения относительно традиций и обычаев, связанных с хлебом в регионе Джизак. Исторически здесь преобладали различные древние религии и религиозные верования до прихода ислама в Центральной Азии. Понимание сущности исторических условий и природных событий наших предков привело к появлению и развитию множества

религиозных убеждений, способствовавших появлению и распространению древних религиозных взглядов и убеждений, таких как тотемизм, анимизм (магия), суеверия, связанные с духами, и зороастризм[1]. В результате древние религиозные представления и мифологические убеждения восхвалялись черты, такие как почитание животных, божество, придающее жизнь, и предок-глава.

Ключевые слова: регион Джизак, географическое расположение, традиции и обычаи, религиозные убеждения, язычество, обряды, связанные с хлебом, первобытные убеждения, население региона.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N09>

Dolzarbliqi. Hayvonlarning xonakilashtirilishi unga nisbatan diniy-mifologik tasavvurlarning rivojlanishi va ularning marosimiy hayotning bir qismiga aylanishiga sabab bo'lgan[2]. Yurtimizning turli tabiiy geografik mintaqalarida chorvachilikning turli sohalari qatori yilqichilik sohasi ham o'ziga xos tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Bu jarayonda Jizzax vohasining o'ziga xos geografik joylashuv xususiyatlari ham qadimdan o'troq va yarim o'troq aholining shimoldan janubga, janubdan shimolga, sharqdan g'arbga, g'arbdan sharqqa tomon siljishlarida o'ziga xos etnomuloqot hududi, ya'ni o'ziga xos "kontakt makon" bo'lganligi xo'jalik yuritish uchun mintaqada barcha qulay sharoitlarni yaratgan. Bu esa, hududda o'ziga xos xo'jalik tarmoqlari, xususan chorvachilik va yilqichilikni doimiy va mavsumiy tarzda rivojlanishiga turtki bo'lgan va shu asnoda voaha aholisi orasida ot bilan bog'liq turli urf-odatlar, qarashlar va marosimlar shakllanishiga zamin yaratgan.

Neolit va eneolit davrlaridan boshlab ibtidoiy jamoalarda otlar xonakilashtirila boshlangan. Otga sig'inish bilan bog'liq ilk udumlar O'rta Osiyoda Kaltaminor madaniyatiga mansub Darvozaqir makoni va janubiy Turkmanistondagi Namozgoh-VI yodgorliklaridan topilgan. Qozog'istonda esa bunday jarayonlar eneolit davrida vujudga kelgan[3]. Qadimda ko'pgina xalqlarda jangchini oti, xotini, buyumlari, oziq-ovqatlari bilan birga dafn etish odati bo'lgan. Bunday marosimlar animistik tasavvurlar, inson ruhining u dunyoda ham yashashiga ishonch bilan bog'liqdir. Xususan, Jizzax vohasida olib borilgan arxeologik izlanishlar jarayonida chorvadorlarga oid ko'plab mozor-qo'rg'onlarda jangchi turli buyumlar qatori o'z oti bilan birgalikda dafn etilgan. 2007 yil avgust, oktyabr oylarida O'zRFA Arxeologiya instituti, Jizzax ekspeditsiyasi tomonidan Zomin tumanida joylashgan chorvador ko'chmanchilar moddiy madaniyatiga mansub G'ulbo mozor-qo'rg'onlari ochib o'rganildi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Arxeolog F.Toshboyevning Jizzax vohasida G'ulbo mozor-qo'rg'onlarida olib borgan qazuv-tadqiqot ishlari natijasida jasadlarni otda ketayotganga o'xshash (poza vsadnika) yoki yarim otliq ko'rinishida dafn etish holati ularning hayotlari davridagi kasb-korlari va ot topinchi bilan ham bog'liq bo'lgan. Chunonchi, G'ulbo yodgorligi 2-mozor-qo'rg'onida jasad yoniga barcha jang qurollari qo'yilib dafn etilgan marhum-suvoriyning qiyshayib "yarim otliq" ko'rinishida dafn etilganligi ham uning o'z umrining katta qismini ot ustida o'tkazganligiga ishoradir[4]. Qadimgi diniy tasavvurlarga ko'ra marhumlarga u dunyoda ham ot xizmat qilishiga ishonilgan.

Yuqorida keltirilgan otlarni muqaddas bilish bilan bog'lik ma'lumotlarni "Avesto", "Rigveda" kabi muqaddas kitoblarda ham ko'plab uchratish mumkin. Avestoda Mitra (Quyosh), keng yaylovlar, chiroyli otlar beruvchi iloh sifatida talqin etilib, u aravaga qo'shilgan oq ot — tez chopar ot (ot- quyosh) qiyofasida ifodalangan. Otlarning kuchlisi va oq ranglisi yaxshi sanalgan deb ta'kidlanadi[5]. Rigvedada esa, tez chopar ot quyoshning aravasi, deb talqin etilib, egarlangan oq otdagi aravada quyosh xudosi Mitra keladi. Shuningdek, ikki ming yillar burun

Farg'onaning samoviy otlari o'zining yeldek uchishi bilan Sharq olamiga mashhur bo'lgan. Ular haqida turli xil rivoyatlar to'qilgan, xususan, Xitoy solnomalarida bu otlarni "qon bilan terlashi" haqida afsona ma'lumotlar keltirilgan[6].

Tadqiqot natijalari. Ajdodlarimiz otni yetti xazinaning biri deb atashgan. Qadimda ot bilan bog'lik qurbonlik keltirish faqat podsho va oliy nasab kishilarga atalgan bo'lib, u bilan bog'liq udumlar eng muhim marosimlardan biri sanalgan. Turkiy xalqlarda vafot etgan qabila oqsoqollari va podsholarni ko'mishda otlar asosiy rol o'ynagan. Sayan-Oltoy xalqlari kuzgi teng kunlikda daryo qirg'og'ida tayilga (toy — elga) marosimini o'tkazishgan. Bu marosimda ular bobolari ruhiga bag'ishlab oq ba'zan sariq rangli ot so'yib qurbonlik qilishgan. Marosim qatnashchilari ot niqobini kiyib toychoqni tasvirlashgan, bunda o'tganlar ruhidan madad kutilgan[7]. Gerodot, skiflar quyoshga va o'zlarining yetti xudolariga bag'ishlangan bayramlari hamda vafot etgan podsholarini xotirlash kunida otlarni qurbonlik qilishlari haqida ma'lumot beradi. Strabon ham massagetlarning quyoshga atab otni qurbonlik qilishlari haqida yozgan[8].

Otlarga sig'inish dastlab uning boshi bilan bog'liq holda shakllanib, bu urf odatlar butun O'rta Osiyo xalqlari etnografiyasida o'zining yorqin ifodasini topgan. Mintaqa ot tabiatning o'lish va tirilish kultini ifodalagan va u Siyovush (qora toychoq) deb atalgan. Otlar quyosh va osmon xudosi sifatida muhim rol o'ynagan. Skiflarning ish va jang qurollarida tez chopar ot, qanotli qush tarzida ifodalangan. Mashhur Amudaryo xazinasi aravaga qo'shilgan turt ot tasviri mavjud. Saklarda otni burgut boshli, uchuvchi ot tarzida ifodalash keng yoyilgan[9]. X asr arab sayyohi Ibn Fadlan o'g'uzlarning otga sig'inishlari haqida quyidagilarni yozgan: "O'g'uzlar vafot yetgan kishilar uchun maxsus inshoot qurgach, uning boyligidan qat'iy nazar yuzlab otlarni o'ldirib, ularning go'shtini yeyishadi, oyog'i, boshi va dumini esa terisi bilan qoldirishadi. Terilarni yog'ochga ilib bu otlar o'lgan odamni narigi dunyoga olib boradi deyishadi"[10].

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti bosqichlarida ko'chmanchi chorvachilik tarzidagi xo'jalik shakli insonning eng yaqin ko'makdoshi bo'lgan otlarni birinchi darajaga chiqargan. Bu avvalo, otlar barcha xususiyatlar bilan ko'chmanchi chorvadorlar yashashi va xo'jalik yuritishiga to'liq mos kelishi bilan bog'lik. Otlar insonning bepoyon cho'lda uzoq masofani bosib o'tishi, ko'chib yurishi hamda turli xil nizoli to'qnashuvlarida eng yaqin ko'makdoshi bo'lgan. Qishning qahrotonli kunlari cho'zilib chorva uchun ozuqa muammosi paydo bo'lganda esa yilqi qor tagidan o'zi uchun yetarli yemish topa olgan. Bu esa xo'jalik yuritishda ko'p muammo tug'dirmagan. Shuning uchun otlarga sig'inish va uni ilohiylashtirish kabi udumlar juda qadimdan shakllana borgan hamda yashab qolish va xo'jalik yuritishdagi muhim ahamiyati tufayli otlar insonning eng yaqin ko'makdoshi sifatida ma'naviy hayot va u bilan bog'liq urf odatlarda yuqori mavqega ega bo'lgan. Chorvaning qaysi turi bilan shug'ullanishdan qat'iy nazar ular xo'jaligida otlarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu avvalo, otlarning barcha xususiyatlariga ko'ra ko'chmanchi chorvadorlar yashash tarzi va xo'jalik yuritishiga to'liq mos kelishi bilan, qolaversa, ko'chmanchi chorvadorlarda faqat suvoriy jangchilar faoliyat ko'rsatganligini hisobga olsak, ot ulug'lanib uning muqaddaslashtirish darajasiga qadar ko'tarilganligi sababi yanada oydinlashadi.

Ot bilan bog'liq udumlar xalqimizning ko'p ming yillik tarixi davomida ajralmas qadriyatlariga aylanib ketgan. Ot bilan bog'liq milliy sport turlarimizning ko'pchiligi xalqimiz tomonidan asrab-avaylab davom ettirib kelinmoqda. Ot bilan bog'liq o'yin va marosimlarni xalqimiz orasida hozir ham istaganicha uchratish va unga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Xususan, Jizzax vohasida milliy ot sport turi bo'lgan "Ko'pkari" musobaqasi qadimdan keng tarqalgan[11].

Jizzax vohasining G'allaorol va Forish tumanlarida olib borilgan dala etnografik tadqiqotlarimiz jarayonida "Ko'pkari" milliy sport turi bilan uzoq paytdan beri shug'ullanib kelayotgan axborotchilar bilan suhbatlashib, ko'plab ma'lumotlarni yozib oldik. Axborotchilardan Sharipov Anvar akaning bergan ma'lumotlariga ko'ra, ko'pkariga tayyorlanadigan ot may oyining o'rtalaridan boshlab toki sentabr oyining oxirlarigacha bog'lovda turadi. Otni bog'lash ham alohida ahamiyat kasb etib, bitta chopqir ot bog'langan joyning yaqin atrofiga boshqa otni bog'lash mumkin bo'lmagan. Buning sababi bir birini tepib shikast yetkazib qo'yishni oldini olishdan tashqari otlarning ruhiy salomatligiga yomon ta'sir o'tkazmaslik ham maqsad qilingan va bunday bog'lanish "yakka qoziq" usuli deb atalgan.

Bundan tashqari otni bog'lovda saqlagan paytda uni minish, joyidan siljitib aylantirish mumkin bo'lmagan. Ot bog'lovdan chiqarilgandan so'ng uning badanini qizdirishgan va shu asosida otning ichki organlari tashqi muhitga moslashtirilgan. Bu jarayonda otni olis masofaga minish, chopish va uzoq aylantirishga yo'l qo'yilmagan. Buning sababini axborotchilarimizdan biri Abduxalil Gadoyevning ta'kidlashlaricha- ot bog'lovda turgan payti uning ichki organizmi moy yig'ib semirib boradi va kam harakat qilgani uchun tanasi qotib qoladi, agarda bog'lovdan chiqishi bilanoq uni uzoq masofaga choptirilsa yoki unga og'ir yuk ortilsa uning bog'lov davomida yig'gan moyi (chorbisi) yirtilib ketishi mumkin-deb hisoblashgan[12].

Otda uchraydigan turli xil kasalliklarni ham mahalliy aholi orasida hozirgi kunga qadar an'anaviy usulda davolash usullari saqlanib qolgan bo'lib, xususan, qabuz (peshob chiqarmay qolish) kasalligida otni uch marotaba qabristonni aylantirish, cho'pon tayog'ini uch marotaba otning tagidan olib o'tish bilan davolashadi. Tuproqlab qolish, ya'ni tuproq yeb qo'yish kasalligida otning burun qismidagi (naquna) tog'oy bilan dum qismidan kesilgan, o'z navbatida og'riqqa chidolmagan ot kuchanib ichidagi tuproqni chiqarib yuborgan. Tuproqlash kasalligini davolash uchun xalq tabobatida silovsinning tirnog'i qaynatib berilgan, shuningdek, ko'k yo'tal kasalligida ko'k qarg'aning patini suvga chayqab ichirilgan yoki ko'k lattani isiriqqa qo'shib tutatib, otning boshidan aylantirilgan. Ot damlab qolganda esa uning naqunasi ya'ni burun qismida o'suvchi eti kesilgan[13]. Ot birorta joyda jarohatlansa yoki yarador bo'lsa unga sariq yog'ni qizdirib sepishgan. Otlarda ko'p uchraydigan burun qismidagi tag'oy o'sib ketsa, nafas olishi qiyinlashgan va bunday vaziyatlarda tag'oy qismi kesib tashlash natijasida otnig nobud bo'lishining oldi olingan[14]. Ot tug'ilgan paytda toychoq o'zining so'rg'ichi bilan tug'ilgan. Agarda so'rg'ich o'z vaqtida olinmasa uni poylab turuvchi qush olib ketgan. So'rg'ich ham o'z navbatida og'iz kasalliklariga, ba'zi toshma yaralarga da'vo bo'lib, uni mahalliy aholi qurutib dori sifatida foydalanishgan.

Voha aholisi tomonidan nafaqat kasalliklarni davolash balki uni oldini olish borasida ham bir qancha odatlar saqlanib qolingan. Masalan ot boqilgan uyda tovuq boqilmagan. Buning sababi tovuq go'nggi ot uchun eng zaxarli vosita hisoblangan. Otni tovuq go'ngi zaxaridan saqlash uchun unga beriladigan yem xashakni ham hatto tom ustida saqlashgan. Otlardagi turli kasalliklarning oldini olishda asosan andiz o'simligi bilan ozuqalantirish orqali kasalliklar oldi olingan. Andiz ildiz mevasi maydalanib, yemga qo'shib berilgan. Bugungi kungacha saqlanib qolgan urf-odatlardan yana biri bu otga ko'z tegishini oldini olish bilan bog'liq bo'lib, unga ko'z tegdi deb tushunilgan vaqtlarda uning peshonasiga tuxum otiladi yoki boshidan isiriq tutatib

aylantiriladi. Bundan tashqari turli balo qazo, yomon ko'zlardan saqlanishi uchun unga isiriq donlari, sedana, qatron bilan tumor tikilib peshonasiga taqib qo'yiladi[15].

Mahalliy aholi orasida otning boshqa uy hayvonlarida kam uchraydigan xususiyatlaridan kelib chiqib, u bilan munosabatga kirishish jarayonida hamma amal qilishi lozim bo'lgan ba'zi ta'qiqlar ham mavjud bo'lib ular quyidagi ko'rinishlarda o'z aksini topadi. Axborotchilarimiz bergan ma'lumotlarga ko'ra ot asosan tun yarimdan o'tgandan so'ng kovush qaytaradi. Uni bo'riga o'xshab o'tirib kovush qaytargani, uyquga ketganini ko'rgan kishi boy-badavlat bo'ladi yoki baxtsiz voqeaga uchrashi to'g'risidagi fikrlar keng tarqalgan bo'lib, ot yarim tunda uyquga ketgan paytda har xil ovozlari chiqarishini inobatga olib, kechasi otning yoniga borishda yolg'iz bormaslik va zaruriyat tug'ilganda uning yoniga borishdan oldin ovoz chiqarib, otning ogohlantirib borish tavsiyasi qilinadi.

Xulosa. Xulosa sifatida ta'kidlash o'rinliki, xalqimiz orasida otning "Yigitning qanoti", "yetti xazinaning biri", "tilsiz odam", "uy hayvonlarining podshosi" deb atashlari, yosh bolalarga nisbatan toychok, toy, toy bola kabi erkalash ko'rinishidagi qo'shimcha nomlanishlar qo'shib aytilishi negizida ham otlarni ulug'lash bilan bog'liq udumlar yotibdi. Shuningdek, kishilar orasida ot bilan bog'liq afsona, rivoyat maqol va har xil suhbatlarni ko'plab uchrashi ham ajdodlarimizning qadimdan ushbu jonivorni muqaddas sanab, e'zozlab kelganligi anglanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Аширов А. Фарғона водийси аҳолиси турмуш тарзида қадимий диний эътиқодлар изи: Тар.фан. ном.... дис. – Тошкент, 2000. – Б. 19.
2. Ashirov A. O'zbek xalqi turmush tarzi va og'zaki ijodida ot kulti. O'zbekiston: til va madaniyat.1, 2023. 97-107
3. Кузмина Е.Е. Кон в религии и искусстве саков и скифов. М.,1977 г.
4. Toshboyev F.E. Otlar bilan bog'liq udumlar o'zbek xalqining qadimiy qadriyati sifatida // Samarqand Davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. – Samarqand: 2008. –№ 6 (52), –B. 23-26.
5. Abdolnizozov B., Is'hoqov M. Avesta va qadimgi chorvachilik. Toshkent, 2008. – B. 74.
6. Matboboev B.X. Oltindan qimmat tulporlar // Fan va turmush –T.: 1994 -№3. –B.10-11., Anorboev A.A. Qadimgi va o'rta asrlarda Axsikent // O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona. –T.: Fan, 2001.–B. 9.,
7. Гумилев Л.Н Древние тюрки. "Наука" М.,1967 г.
8. Гумилев Л.Н Древние тюрки. "Наука" М.,1967 г.
9. Тереножкин А.И. Общественный строй скифов (Сарматы и скифы №13860). "Наука думка" Киев, 1977 г.
10. Кузмина Е.Е. Кон в религии и искусстве саков и скифов. М.,1977.
11. Dala tadqiqotlari. Forish tumani Garasha qishlog'i. 2023 yil.
12. Dala yozuvlari. G'allaorol tumani Uzunbuloq qishlog'i . 2022 yil.
13. Dala yozuvlari. Egamberdiyev Erkin. Forish tumani Garasha qishlog'i. 2023 yil.
14. Dala yozuvlari. Quvondiq xoji Tog'ayev . G'allaorol tuman Gadoy qishlog'i. 2022 yil.
15. Dala yozuvlari. Tursunboy Asqarov. Vaxmal tumani Novqa qishlog'i . 2022 yil.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/1 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).